

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MOLIIYAVIIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIIY- METODOLOGIIK OMILLARI

Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich

Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi,

Tel: +998905545040; E-mail: Abrorjonasqarov86@gmail.com

Annotatsiya. Agar ilgari biz moliyaviy ta'limga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda bu vazifani amalga oshirish qiyinroq kechmoqda. Hozirgi kunda moliyaviy tafakkurni shakllantirish lozim. Talabalarni to'g'ri tanlov qilishga, kelajagini rejalashtirishga o'rgatish kerak. Faqat shu tarzda moliyaviy farovonlik faqat insonga bog'liq bo'lgan jamiyatni qurish mumkin bo'ladi. Rivojlanayotgan davlatlarda rasmiy moliyaviy xizmatlarning cheklanganligini mavjudligi, qashshoqlik darajasining ko'tarilishi va moliyaviy infratuzilmaning yetarli emasligi kabi noyob moliyaviy to'siqlarga duch kelmoqdalar. Masalan, 2024 yili rivojlanayotgan mamlakatlarda kattalarning 40% rasmiy moliyaviy hisoblarga pul jamg'argan. Bu 2021 yilga nisbatan 16 foizli o'sishni anglatib, bu ko'rsatkich o'n yildan ortiq davrdagi eng tez o'sish hisoblanadi. [1] Yuqorida aytib o'tilgan muammolar samarali moliyaviy ta'lim tashabbuslarini amalga oshirish zarurligini ko'rishimiz mumkinligini taqozo etmoqda. Ushbu maqolada talabalarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning iqtisodiy metodologig asoslarini aniq tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik degradatsiyasi, adaptatsiyasi, vizualizatsiyasi, aglomeratsiyasi, integratsiyasi, identivligi, navigatori, diagnostikasi, elastikligi, determinantlari, konsentratsiyasi, diffuziyasi, informatori, transformatsiyasi, regulyatori, indikatori, sinergetikasi.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining jadal globallasuvi, moliya sektorining raqamlashtirilishi hamda bozor munosabatlarining tubdan o'zgarishi jamiyat a'zolari, ayniqsa, yosh avlod oldiga yangicha iqtisodiy-ijtimoiy talablarni qo'ymoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsning moliyaviy barqarorligi va farovonligi endilikda nafaqat an'anaviy daromad manbalariga, balki uning oqilona moliyaviy qaror qabul qilish, resurslarni to'g'ri boshqarish, kutilmagan iqtisodiy xatarlarni oldindan baholash hamda zamonaviy fintex vositalaridan unumli foydalanish salohiyatiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oliy ta'lim muassasalari talabalarida moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy tafakkurni tizimli shakllantirish davlat miqyosidagi strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda aholi, shu jumladan talaba-yoshlar bir qator tizimli moliyaviy to'siqlarga duch kelmoqda. Zamonaviy raqamli to'lov tizimlarining haddan tashqari osonlashuvi (bir klik orqali xarid qilish, onlayn mikroqarzarlar, muddatli to'lov — BNPL xizmatlarining ommalashuvi) yoshlarda pulning real qadrini anglamaslik, moliyaviy intizomsizlik va «hozir iste'mol qil, keyin to'la» tamoyili asosida asossiz qarz yukiga tushib qolish xavfini kuchaytirmoqda. Jahon banki

ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda kattalarning 40 foizi rasmiy moliyaviy hisoblarga pul jamg'argan bo'lib, bu so'nggi o'n yillikdagi eng yuqori o'sish sur'ati sifatida qayd etilgan. Biroq moliyaviy xizmatlarning ommalashuvi ulardan foydalanish madaniyati va xatarlarni baholash ko'nikmalari ham mutanosib ravishda rivojlanganini anglatmaydi.

Oliy ta'lim tizimida, ayniqsa, noiqtisodiy yo'nalish talabalari (muhandislik, tibbiyot, gumanitar va tabiiy fanlar) o'rtasida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish o'ziga xos murakkablikka ega. Ushbu toifadagi talabalar chuqurlashtirilgan nazariy iqtisodiy bilimlardan yiroq bo'lganliklari sababli ularga an'anaviy formulalar va abstrakt nazariyalar orqali bilim berish amaliyotda kutilgan samarani bermaydi. Tadqiqotchi N.Z.Sayfullaeva o'z ishlarida ta'kidlaganidek, talabalarda iqtisodiy bilimlarning muhimligini anglash mavjud bo'lsa-da, ta'lim tizimidagi amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi sababli ularning aksariyati real bozor voqeligida harakat qilishda jiddiy qiyinchiliklarga uchramoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarning juda kam qismi o'zining kelajakdagi startap loyihalari yoki shaxsiy rejalari uchun elementar texnik-iqtisodiy asosnomalarni tuza oladi yoki iqtisodiy qonunchilik mohiyatini to'la tushunadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xususan, "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida aholining, shu jumladan yosh mutaxassislarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularni mustaqil hayotga tayyorlash asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Talabaning oliy ta'lim davridagi moliyaviy xulq-atvori uning butun kelajakdagi hayotiy muvaffaqiyatini, investitsion salohiyatini va jamiyatdagi iqtisodiy barqarorligini belgilab beradi. Shunday ekan, noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida moliyaviy savodxonlikni shunchaki ma'lumot berish emas, balki talabalarda tahliliy, tanqidiy va refleksiv ko'nikmalarni birlashtirgan dinamik metodologik model asosida o'qitish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarining noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishning iqtisodiy-metodologik omillarini tadqiq etish, moliyaviy tafakkur degradatsiyasining oldini olish mexanizmlarini aniqlash hamda ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mumkin bo'lgan konseptual zanjirli modelni taklif qilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy tadqiqotlar kontekstida talabalarning iqtisodiy dunyoqarashini rivojlantirish va ta'lim tizimidagi amaliy kamchiliklar o'rtasidagi nomutanosiblik keng o'rganilgan. Xususan, N.Z.Sayfullaeva (2022) o'z tadqiqotida ta'lim tizimidagi an'anaviy statik yondashuvlarni tanqid qilib, "talabalar tahsil olayotgan ta'lim tizimi amaliy ko'nikmalar yetishmasligi tufayli ularning intellektual salohiyatini to'la miqdorda ochib bermaydi. Juda kam talabalar o'zlarining g'oya va loyihalari uchun texnik-iqtisodiy asosnomani hisoblashga qodir" degan xulosaga keladi. Ushbu yondashuv talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki real bozor sharoitlariga moslashgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Global miqyosda esa moliyaviy savodxonlik tobora raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashib bormoqda. A.Menberu (2024) rivojlanayotgan mamlakatlardagi moliyaviy ta'limni

texnologiyalar orqali yengillashtirish imkoniyatlarini tahlil qilib, raqamli platformalarning ta'limiy samaradorligini asoslaydi. Ushbu g'oyani Jahon bankining (2025) hisoboti ham tasdiqlaydi: unda ta'kidlanishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish dinamikasi aynan mobil va raqamli texnologiyalar hisobiga o'tgan o'n yillikdagi eng tez o'sish ko'rsatkichini qayd etgan.

Moliyaviy savodxonlikni bevosita OTM muhitida o'qitish metodikasi va dasturlar sifatini tahlil qilgan xorijlik olimlar S.V.Brovchak va boshqalar (2019) o'z so'rovnomalarida jiddiy tizimli muammoni aniqlaganlar. Mualliflar "OTM o'quv dasturlarida moliyaviy savodxonlik yetarlicha aks etmagan, nazariya va hayotdagi moliyaviy xulq o'rtasida uzilish borligi" hamda talabalar moliyaviy bilim olishga tayyor bo'lsa-da, ta'lim dasturlarida amaliy keyslar yetishmasligini keskin tanqid ostiga oladilar. Ushbu muammoning metodologik yechimi va oqibatlarini o'lchash masalasida O.S.Dusmuhamedov va Sh.A.Dusmuxamedova (2020) yangi yondashuvni taklif qiladi. Ular ta'lim berishning o'zi yetarli emasligini, uning yakuniy samarasini aniq indikatorlar yordamida o'lchash zarurligini uqtiradilar. Mualliflarning fikricha, "talabalarni o'qitdik deyish oson, ammo natija o'lchanmasa samarasi noaniq bo'lishi" sababli OTMlarda muntazam ravishda "bilim + ko'nikma + xulq-atvor" triadasini qamrab oluvchi diagnostika va monitoring tizimini joriy etish lozim.

Moliyaviy savodxonlikning konseptual asoslarini o'rgangan G.V.Belexova va O.N.Kalachikova (2018) ushbu tushunchani inson hayoti davomida uzluksiz shakllanadigan ierarxik tizim sifatida baholaydilar. S.D.Reznik va boshqalar (2023) esa ushbu nazariyani hududiy va mintaqaviy oliy ta'lim muassasalari xususiyatlariga bog'lab, talabalarning o'ziga xos moliyaviy imkoniyatlari va mintaqaviy mehnat bozori determinantlarini tahlil qiladioni. Shuningdek, Ye.A.Sushko (2018) va D.Yu.Razumovskiy (2022) kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida moliyaviy savodxonlik darajasining mintqa iqtisodiyotiga ta'sirini va aholining moliyaviy xulq-atvor profillarini modellashtirish masalalariga e'tibor qaratganlar. M.R.Obilov (2019) esa aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi mazmuni va fundamental ahamiyatini asoslab bergan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot oliy ta'lim muassasalarining noiqtisodiy yo'nalish talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning iqtisodiy-metodologik omillarini aniqlash, baholash va tizimli modelini ishlab chiqishga qaratildi. Tadqiqot obyekti sifatida noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari (muhandislik, tibbiyot, gumanitar fanlar) tanlab olindi. Chunki mazkur auditoriya an'anaviy iqtisodiy ta'lim metodlaridan yiroq bo'lib, ularning amaliy moliyaviy qaror qabul qilish ko'nikmalari o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

Tadqiqotda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini uyg'unlashtiruvchi aralash tadqiqot dizayni (mixed-methods approach) qo'llanildi. Mazkur yondashuv talabalarning moliyaviy bilimi va xulq-atvorini miqdoriy jihatdan o'lchash (so'rovnomalar orqali) hamda ulardagi moliyaviy degradatsiya sabablarini sifat jihatdan (keys tahlili va tarkibiy modellashtirish orqali) chuqur anglash imkonini berdi.

Tadqiqot uchta ketma-ket bosqichda olib borildi:

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy va pedagogik sharoitlarda o'ta dolzarb bo'lib, u nafaqat individual moliyaviy barqarorlikni, balki jamiyatning umumiy iqtisodiy immunitetini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliyaviy savodxonlik talaba o'z pul mablag'larini boshqarish, byudjet tuzish, investitsiya qilish, qarz olish, pensiya va sug'urta tizimlaridan foydalanish, shuningdek, raqamli moliya (bank ilovalari, kriptoaaktivlar, onlayn savdo) vositalarini tushunish va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Ushbu bo'limda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning asosiy iqtisodiy-metodologik omillari tizimli ravishda ko'rib chiqiladi. Bunda klassik moliyaviy bilimlardan farqli o'laroq, yangi kontseptual zanjir – moliyaviy savodxonlik degradatsiyasi → adaptatsiyasi → vizualizatsiyasi → aglomeratsiyasi → integratsiyasi → identivligi → navigatori → diagnostikasi → elastikligi → determinantlari → konsentratsiyasi → diffuziyasi → informatori → transformatsiyasi → regulatori → indikatori → sinergetikasi – taklif etiladi. Bu zanjir iqtisodiy omillarni (pulning virtualizatsiyasi, qarzga bog'liqlik, iste'mol madaniyati) metodologik omillar (interdistsiplinarn yondashuv, innovatsion texnologiyalar) bilan uyg'unlashtirib, talabalarda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning yangi modelini shakllantiradi.

Moliyaviy savodxonlik degradatsiyasi – bu talabalarning mavjud moliyaviy bilim va ko'nikmalarining zamonaviy muhit ta'sirida susayishi yoki yo'qolishi jarayonidir. Bu shunchaki «bilmaslik» emas, balki bor ko'nikmalarining yomonlashishi va fikrlash doirasining torayishidir. Iqtisodiy jihatdan bu jarayon to'lovlarning haddan tashqari osonlashuvi (bir klik bilan sotib olish, muddatli to'lovlar), pulning virtualizatsiyasi va «hozir iste'mol qil, keyin to'la» modeli natijasida yuzaga keladi. Natijada talabalarda moliyaviy infantilizm (mas'uliyatni davlat, banklar yoki ota-onaga yuklash), tanqidiy fikrlashning yo'qolishi va kelajakni inkor etish (bir lahzali «shok-iste'mol» ustunligi) kuzatiladi.

Metodologik jihatdan bu degradatsiya ta'lim tizimining an'anaviy statik yondashuvlari va texnologik qulayliklarning (agressiv marketing, inflyuenserlar) ta'siri bilan bog'liq.

Moliyaviy savodxonlik adaptatsiyasi klassik statik bilimlardan farqli o'laroq, doimiy o'zgaruvchan muhitga (raqamli aktivlar, blokcheyn, sun'iy intellekt, inflyatsiya, global risklar) moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Bu «financial agility» (moliyaviy chaqqonlik) tushunchasiga yaqin bo'lib, texnologik moslashuv, inqirozli vaziyatlarda elastiklik va psixologik adaptatsiyani o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy omil sifatida talabalarning kredit va muddatli to'lovlarga munosabatini to'g'ri shakllantirishni ta'minlaydi, metodologik jihatdan esa raqamli gigiyena, kiberxavfsizlik va global tendensiyalarga (yashil moliya, ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar) moslashuvni o'rgatadi. Adaptatsiya to'xtasa, degradatsiya boshlanadi bu zanjirning asosiy qonuni hisoblanadi.


Moliyaviy savodxonlik vizualizatsiyasi murakkab moliyaviy ma'lumotlarni (foizlar, investitsiya portfeli, risk darajasi) infografika, heatmaps, dinamik grafiklar va

interaktiv dashboardlar orqali soddalashtirishdir. Bu talabalarning tahlil vaqti va qaror sifatini oshiradi, hissiy bog‘liqlik (Vision Board) orqali motivatsiyani kuchaytiradi.

Moliyaviy savodxonlik aglomeratsiyasi esa resurslar, bilim va imkoniyatlarning bir nuqtada (universitet huzuridagi «talabalar moliyaviy hubi») jipslashuvi va sinergiya effekti hosil qilishidir. Bu ta’lim + bank + davlat + texnologiya to‘rtligini birlashtirib, talaba atrofida yagona ekotizim yaratadi. Iqtisodiy jihatdan bu moliyaviy degradatsiyaga qarshi «qalqon» bo‘lsa, metodologik jihatdan peer-to-peer (tengdoshdan-tengdoshga) muloqot va jamoaviy investitsiya klublari orqali bilimning «yuqumli» tarqalishini ta’minlaydi.

Moliyaviy savodxonlik integratsiyasi moliyaviy bilimlarni talabaning ta’lim, ish faoliyati, raqamli muhit va kundalik turmushining ajralmas qismiga singdirish jarayonidir. Bu nafaqat nazariya-amaliyot uyg‘unligi, balki ijtimoiy-iqtisodiy mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi. Moliyaviy savodxonlik identivligi (identikligi) talabaning o‘z moliyaviy «Men»ini shakllantirishi, tashqi manipulyatsiyalardan mustaqillik va moliyaviy portret (kredit tarixi, tranzaksiyalar madaniyati)ni anglashidir. Moliyaviy savodxonlik navigatori esa maqsadni belgilash, xavflarni chetlab o‘tish, qayta hisoblash va axborot filtrini ta’minlovchi dinamik mexanizmdir. Bu identivlik va adaptatsiyaning amaliy ifodasi bo‘lib, talabaga «qaerga va qanday ketayotganini» ko‘rsatadi.

Moliyaviy savodxonlik diagnostikasi (salomatlik diagnostikasi) talabaning joriy holatini «rentgen» qilish, degradatsiya nuqtalarini topish va stress-test o‘tkazishdir. Moliyaviy savodxonlik elastikligi iqtisodiy zarbalarga tez moslashish va tiklanish qobiliyatidir. Moliyaviy savodxonlik determinantlari (ijtimoiy-demografik, ta’lim-kognitiv, psixologik, texnologik va iqtisodiy omillar) savodxonlik darajasini belgilovchi asosiy sababchilardir. Moliyaviy savodxonlik konsentratsiyasi resurslarni strategik maqsadga jamlaydi, diffuziyasi bilimning jamiyatga tabiiy tarqalishini ta’minlaydi, informatori axborotni filtrlab beradi, transformatsiyasi butun moliyaviy dunyoqarashni yangilaydi, kartasi vizual roadmap vazifasini o‘taydi, regulyatori (ichki psixologik va tashqi texnologik) xulq-atvorni nazorat qiladi, indikatorlari (miqdoriy, sifat, dinamik, stress) holatni o‘lchaydi, nihoyat, sinergetikasi barcha elementlarning $1+1=3$ effekti orqali yuqori samaradorlik hosil qiladi.



1-rasm. Talabalarning moliyaviy savodxonligini iqtisodiy-metodologik model zanjiri

Natijada talabalarda nafaqat bilim, balki moliyaviy identivlik, elastiklik va sinergetik ekotizim shakllanadi. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning iqtisodiy-metodologik asosini tashkil etadi va keyingi bo'limlarda empirik tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu model degradatsiyani bartaraf etib, adaptatsiya va sinergetika orqali talabalarda barqaror moliyaviy madaniyatni shakllantirish imkonini beradi.


MUHOKAMA

Nazarimda, murakkab xo'jalik dunyosini aks ettiruvchi Moliyaviy savodxonlik asoslari fanlarini o'rganish uchun to'g'ri metod tanlash muhim ahamiyatga ega. Dars o'tishda to'g'ri metod tanlanmasa, nazariy jihatdan o'qituvchining bilimi yuqori bo'lishidan qat'i nazar, kutilgan natijani bermaydi. O'qituvchining bilimi pedagogik mahorati bilan qo'shilgandagina o'quv jarayonini samarali tashkil etishi mumkin.

Meni fikrimcha, moliyaviy savodxonlikni o'qitish quyidagilarga asoslanishi lozim bo'ladi.

- Ijtimoiy hayotning iqtisodiy hodisalari va jarayonlari. Pul va inflyatsiya
- Daromad va xarajatlar. Shaxsiy byudjet va moliyaviy rejalashtirish
- Hisob-kitoblar va to'lovlar
- Inson hayotidagi tejamkorlik
- Kreditlar va qarzlar
- Investitsiyalar
- Shaxsiy xatarlarni boshqarish va shaxsiy moliya sohasida sug'urta
- Soliqlar
- Pensiya ta'minoti va shaxsiy uzoq muddatli jamg'armalarni shakllantirish
- O'z biznesingizni yaratish va rivojlantirish uchun moliyaviy vositalar
- Moliyaviy xizmatlar iste'molchilari va ularning huquqlari.
- Shartli ravishda moliyaviy savodxonlik noldan boshlab 3 bosqichga

bo'linadi:




2-rasm. Moliyaviy savodxonlikni rivojlanish bosqichlari¹

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Buning uchun o‘quv jarayonini tashkil etishning turli metodlari va ularni qo‘llashni bilishi lozim. Moliyaviy savodxonlik asoslari fanini o‘qitish metodikasi (uslubiyati) aynan ana shu maqsadga qaratilgan. U iqtisodiy fanlarni o‘rganish metodlari va uni dars jarayonida qo‘llash yo‘llarini o‘rgatadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, iqtisodiyotga davlat aralashuvining qisqarib, nodavlat tarmoqlarning rivojlanishi, mamlakatimizni jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyasi ta‘lim tizimini ham isloh qilish, hozirgi zamon ta‘lim tizimi oldida turgan masalalarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlarni moliyaviy savodxonligini oshirish muhim masalalardan biri bo‘lib qoldi.

S.V.Brovchak, M.A.Selivanova, Ye.N.Sochneva, O.V.Firsanova, A.A.Syiganov, V.G.Shubaevalarning (2019) tadqiqotlarida o‘tkazilgan so‘rovnomalarini natijalarini tahlil etib, talabalarda moliyaviy ko‘nikma yetishmasligi, lekin o‘rganish istagi borligi, talaba moliyaviy bilim olishga tayyor bo‘lsa ham, dasturda yetarli imkoniyat berilmaganligini ta‘kidlashadi. Talaba zararli yoki noto‘g‘ri tushuntirilgan moliyaviy mahsulotni sotib oladi. Talabalarga “Moliyaviy marketing va iste‘molchi himoyasi” keyslarini berish orqali ularni moliyaviy qaror qabul qilishdagi faolligini oshirish muminligini ko‘rsatishadi. OTM o‘quv dasturlarida moliyaviy savodxonlik yetarlicha aks etmagan, nazariya va hayotdagi moliyaviy xulq o‘rtasida uzilish borligi izohlanadi. [12]



3-rasm Iqtisodiy fikrlashning funksiyalari²

Shuning uchun ham mamlakatimizda moliyaviy ta‘lim-tarbiya berishga maktabdan boshlab alohida e‘tibor qaratilmoqda. Barcha kasb ta‘limi yo‘nalishidagi bakalavrlar uchun «Moliyaviy savodxonlik asoslari fanlarini o‘qitish metodikasi»ni o‘rganilishi zarur bo‘lgan asosiy predmetlardan biri hisoblanadi.

²Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

O.S.Dusmuhamedov, Sh.A.Dusmuxamedovalar (2020) tadqiqotida Moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlashda metodologiyalar (OECD/Jahon banki) va indikatorlar muhimligini ta'kidlashadi. Talabalarni o'qitdik deyish oson, ammo natija o'lchanmasa samarasi noaniq bo'lishi haqida izohlaydi. Bu bo'yicha OTMda doimiy natijaga qarab monitoring olib borish orqali diagnostika (bilim+ko'nikma+xulq) qilish ijobiy samara beradi.³

Moliyaviy savodxonlik asoslari fani faqatgina nazariy emas, amaliy fandır. Ular bevosita amaliyotga tayanadi, aniq ma'lumotlar, dalillar, raqamlar hisob kitoblarga asoslanadi. Shuning uchun iqtisodiy bilimlarni o'rganish, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, real iqtisodiy jarayonlar asosida amalga oshiriladi.

Nazariyotchilarning fikriga ko'ra, iqtisodiy fikrlash muayyan turdagi funksiyalarni bajaradi. Ular orasida eng muhimlari:

Barcha funksiyalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida iqtisodiy fikrlash tarkibida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin.

Bularni har-biri talabada quyidagi kompetnesiyalarni hosil qiladi. Jumladan,

1. Muqobillik- bu dastlabki iqtisodiy ma'lumotlarning to'liqligini baholash, muammoning turli yechimlarini topish, so'ngra ularning iqtisodiy samaradorligini baholash qobiliyati.



4-rasm Iqtisodiy fikrlashning tarkibiy qismlari piramidasi⁴

2. Moslashuvchanlik- bu muammoni hal qilish jarayonida aniqlangan shartlarga javob bermasa va boshidanoq hisobga olinmasa, uni hal qilishning mo'ljallangan yo'lini o'zgartirish qobiliyati.

3. Muvofiqlik-bu obyektlar va hodisalarning turli xil aloqalarini aniqlash, ma'lumotlarni tasniflash va tuzish, olingan natijalarni umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyati.

4. Iqtisodiy samaradorlik-bu amaliy foyda va istiqbollarni hisobga olgan holda muammoni hal qilishning oqilona usuli.

5. Tanqidiylik-bu aqliy faoliyat natijalarini qat'iy baholash, ularni tanqidiy baholash, noto'g'ri qarorni rad etish, agar ular vazifa talablariga zid bo'lsa, boshlangan

³ Дусмухамедова, Ш.А., Дусмухамедов, О.С., Аҳолининг молиявий саводхонлигини баҳолашнинг назарий асослари "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil

⁴ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

harakatlardan voz kechish qobiliyati hisoblanadi.

6. Mustaqillik–bu tashabbuskorlik, tanqidiylik, o‘zini o‘zi qadrlash va ularning faoliyati va xatti-harakatlari uchun shaxsiy javobgarlik hissi bilan namoyon bo‘ladigan umumashtirilgan shaxsiy xususiyat.

Talabalarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish texnologiyasi-bu talabalarning iqtisodiy bilimlari, ko‘nikmalari va tafakkurini shakllantirishga qaratilgan o‘qitish va tarbiyalash usullarini o‘z ichiga oladi. Uning maqsadi talabalarni iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda aniq va oqilona yondashuvlarga o‘rgatish, ularga pulni boshqarish, investitsiyalar qilish, byudjetlashtirish va moliyaviy xavf-xatarlarni hisobga olish kabi mavzularda bilimlar berish hisoblanadi.

Iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish va ta’lim standartida belgilangan boshqa vazifalarni hal qilish, fikrlashning yangi darajasini ta’minlaydigan interfaol o‘qitish usullaridan foydalanishni talab qiladi, bunda insonning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati hisobga olinadi.

Bizni fikrimizcha, iqtisodiy fikrlaydigan talabani shakllantirish nazariy va amaliy komponentlar orqali amalga oshiriladigan rivojlanish mashg‘ulotlari orqali amalga oshirilishi kerak.

Jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari tajribasi hamda ilmiy izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, noiqtisodiy yo‘nalish (masalan, muhandislik, tibbiyot yoki ona-tili adabiyot) talabalari uchun moliyaviy savodxonlikni o‘qitishda faqatgina raqamlar va formulalarga asoslangan an’anaviy yondashuvlar yetarli samara bermaydi. Bunday auditoriya uchun o‘quv jarayonini hayotiy va amaliy ko‘nikmalarga bog‘lash talab etiladi. Shu boisdan, tadqiqotimizda moliyaviy savodxonlik – bu oliy ta’lim muassasasi talabasining jamiyatdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda mustaqil va mas’uliyatli qarorlar qabul qila olish salohiyati bo‘lib, u quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq komponentning dinamik majmuasi sifatida talqin qilindi.

Pedagogik-psixologik komponent – bu talabaning shunchaki bilimlar yig‘indisi emas, balki talabaning iqtisodiy tafakkur refleksiya, moliyaviy madaniyati va xulq-atvori (stereotiplardan xoli bo‘lishi) hamda o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish (adaptatsiya) qobiliyatidir.

Iqtisodiy-texnologik komponent – bu talabaning an’anaviy moliya bilan birga, innovatsion raqamli texnologiyalardan (fintex, kripto-aktivlar, onlayn-banking) samarali foydalana olish, resurslarni optimallashtirish va moliyaviy risklarni (inflyatsiya, defolt, firibgarlik) oldindan tahlil qila olish kompetensiyasidir.

Mantiqiy-dinamik komponent – bu talabaning mantiq qonunlariga (sabab-oqibat bog‘liqligi, deduksiya va induksiya) tayanib, shaxsiy va jamiyat darajasidagi iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini anglash hamda moliyaviy maqsadlarni strategik rejalashtirish jarayonidir.

XULOSA

Kelajakda erishishimiz lozim bo‘lgan buyuk maqsadlarga yetishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak.

Metodologik jihatdan bu degradatsiya ta’lim tizimining an’anaviy statik

yondashuvlari va texnologik qulayliklarning (agressiv marketing, inflyuenserlar) ta'siri bilan bog'liq.

Iqtisodiy jihatdan bu moliyaviy degradatsiyaga qarshi «qalqon» bo'lsa, metodologik jihatdan peer-to-peer (tengdoshdan-tengdoshga) muloqot va jamoaviy investitsiya klublari orqali bilimning «yuqumli» tarqalishini ta'minlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 8 iyun "2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi VM-365-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025 yil 26-iyun "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2024 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida"gi SQ-148-V-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025 yil 18-martdagi "O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2024 yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi hamda 2025 yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi SQ-102-V-sonli qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va “O'zbekiston-2030” Strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida”gi PF-22-sonli Farmoni
5. M.R.Obilov Aholining moliyaviy savodxonligi: mazmuni, ahamiyati va asosiy jihatlari, E-mail: obilovmirkomil@mail.ru, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2019
6. С.В.Бровчак, М.А.Селиванова, Е.Н.Сочнева, О.В.Фирсанова, А.А.Сыганов, В.Г.Шубаева, Вопросы повышения финансовой грамотности студентов высших учебных заведений финансово-экономической направленности, Интернационал Ссиентифис Электронис Жоурнал, Перспективы Науки и Образования. 2019. 5 (41)
7. С.Д.Резник, О.А.Сазыкина, М.В.Черниковская "Повышение финансовой грамотности студентов: особенности и возможности региональных вузов", Интеграция образования. Т. 27, № 3. 2023, <http://edumag.mrsu.ru>
8. A.Menberu, Technology-mediated financial education in developing countries: a systematic literature review, <https://doi.org/10.1080/23311975.2023.2294879>, Cogent Business & Management 2024, Vol. 11, no. 1, 2294879
9. Белехова Г.В., Калачикова О.Н «Век живи – век учис»: концептуальный дискурс о финансовой грамотности населения, Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз Том 11, № 6, 2018
10. Е.А.Сушко, Влияние финансовой грамотности населения на развитие экономики региона, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Волгоград-2018
11. Д.Ю.Разумовский, Формирование решений финансового характера

на основе профилей финансового поведения населения, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Екатеринбург-2022

12. N.Z.Sayfullaeva, Talabalarda iqtisodiy tafakkurni innovation texnologiyalar asosida rivojlantirish, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertasiyasi avtoreferati, Samarqand – 2022

13. Internet ma'lumotlari

https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/07/16/mobile-phone-technology-powers-saving-surge-in-developing-economies?utm_source=chatgpt.com

14. https://cbu.uz/oz/press_center/news/621205/